

QO'L MEHNATI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR QO'L BARMOQLARI VA BILAKNING HARAKATCHANLIGINI RIVOJLANTIRISH

Normamatova Nigina Alisher qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Maxsus pedagogika va inkluziv ta'lif fakulteti Logopediya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mavzuning dolzarbliji, maqsad va vazifalari, predmeti, obyekti, metodlari asoslab beriladi. Muammoning psixofiziologik va lingistik asoslari, maktabgacha tarbiya yoshidagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning barmoqlar va bilak harakatchanligini tekshirish maqsadida turli topshiriqlar berildi.*

Kalit so'zlar: *Mayda qo'l motorikasi, o'yin.*

Nutq - bu shunday faoliyatki, bosh miya va nerv sistemasining boshqa bo'limini funksiyalanishini kelishilgan xolda amalga oshirilishidir. Nutq faoliyatini amalga oshirishda eshitish, ko'rish, xarakatlantiruvchi va kinestetik analizatorlar Nutq, nutq organlaridan bosh miyaga boruvchi mushak xisslaridir. Sog'lom bolada til tovush tizimiga ega bo'lishi, umumiy motorikani rivojlanishi va qo'l xarakatini differensiyalashgani bilan bir vaqtida vujudga keladi. Barmoqlarni nozik xarakatini mashq qildirish nutqni intensiv rivojlanishiga olib kelishini M.M. Kolsova eksperimental isbotlagan. N. A. Bernshteyn harakatlar tashkiloti nazariyasini ishlab chiqqan va nutqni xarakatlar tashkilotini yuqori darajasiga kiritgan. Bernshteyn mustaqil harakatni amalga oshirish bosqichlarini aniqlagan. Harakat koordinatsiyasi tajriba va mashg'ulotlar asosida bosqichma-bosqich rivojlanib boradi, chunki bu murakkab sensomotor aloqa, afferent oqim bilan boshlanadi va to'g'ri markaziy javob bilan tugaydi. L.V. Fomina bolalarni turli muassasalarida ko'rikdan o'tkazdi va nutq darajasini rivojlanishi har doim qo'l barmoqlarini nozik harakatini rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini aniqladi. Nevropatolog va psixiatr V.M. Bexterev yozganidek, qo'l harakati funksiyasi har doim nutq funksiyasi bilan bog'liq va birinchisini rivojlanishi ikkinchisini rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Qo'l barmoqlari harakati ustida ishslash, xaqiqatdan markaziy nerv sistemasini yetilishiga asos bo'ladi, bu esa umuman olganda bola nutqi rivolanishini tezlashishiga omil bo'ladi. I.Pavlovni «nutq - bu avvalam bor, nutq organlaridan bosh miya po'stlog'iga boruvchi mushaklar hissidir» degan nazariyasi, bola nutqini ko'plab izlanishlari bilan isbotlanadi. Mayda motorikani rivojlantirish mobaynida biz miyaning mutanosib sohalarini faollashtiramiz va bunda nutqqa javob beruvchi yondosh markazlar ham rivojlanadi. Kundalik hayotda inson deyarli har daqiqada mayda motorikaning faoliyatini talab qiluvchi harakatlarni bajaradi. Demak inson hayoti to'g'ridan to'g'ri ravishda mayda motorikaning sifatiga bog'liq. Maktabga tayyorlash davri boshlanganida, barmoq harakatlarining koordinatsiyasi hamda mayda motorikaning shakllanishi maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishining muhim omillaridan biri sanaladi. . Jismoniy mashqlarni, jumladan

barmoqlar xarakatchanligi tizimli tarzda bajarish bolaning umumiy holatiga va uning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Kundalik barmoq mashqlari bolaning emotsiunal tonusini va uning harakatlari sifatini oshirishni isbotlaydilar. Shu sababli erta va maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan mashg'ulotlarini o'tkazish muhimligini ta'kidlaydilar. Barmoqlarning mayda harakatini mashq qildirish bo'yicha olib boriladigan tizimli ish nutq rivojlanishini tezlashtirishi bilan bir qatorda bosh miya po'stlog'ining ish qobiliyatini oshiruvchi kuchli vositadir, u bolalar diqqatini, xotirasini, ko'rvu va eshituvini yaxshilaydi.

Maktabgacha davrda bolalarning yuqori darajada kamol topishlarini ta'minlash hamda matab dasturini o'zlashtirishga asos bo'lib xizmat qiluvchi nutqni rivojlantirish muhim sanalishi sababli maxsus ta'limning asosini ularning barmoqlar harakatchanligi, lug'at, fikr va nutqni rivojlantirish, ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlarining negizini tashkil etuvchi jamoada faoliyat yuritishning dastlabki elementlarini shakllantirish lozim.

Nutq buzilishiga ega bo'lgan bolalarga maktabgacha tarbiya muassasasida zamonaviy ta'lim-tarbiya berish til mohiyatini tushunish ta'limotiga tayanadi. Maxsus maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish ushbu toifa bolalari ona tilini egallashlarining qonuniyatlari, nutq buzilishining psixolingvistik asoslarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Maxsus ta'lim muassasasining jamoa a'zolari, xususan, guruh logopedi va tarbiyachisi tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida rejali, muntazam ravishda olib boriluvchi ishlarni yo'lga qo'yish bola nutqi va maxsus maktabgacha ta'limi samaradorligiga erishishning muhim omili sanaladi. Bunda asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan logopedic mashg'ulotlarda nutqni rivojlantirishda barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аюпова М.Ю., Л.Р.Мўминова. Логопедия.Тошкент-1992 .
2. Ахмедова З., М.Аюпова, М.Хамирова. Логопедик ўйин. Тошкент-2013.
3. Ahmedova.Z. Ertak terapiyasi. Методик йўриқнома-Toshkent.:2018.
4. Аксёнова. М. «Развития тонких движений пальцев рук у детей с нарушениями речи». Дошкольное воспитание. Москва – 2000 г. № 3.
5. Болотина. А.Р.Дошкольная педагогика. Учебное пособие. Москва – 2007.
6. Блинова.Л.Н.Диагностика и коррекция в образовании детей с ЗПР. Москва – 2005.